

BOLALAR VA KATTALAR UCHUN TIL O'RGANISHNING FARQLARI**Norboyeva Zuhraxon Alijon qizi***alidjanovnaaa999@email.com**Uzbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Ingliz filologiya fakulteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o'rganish jarayonining yoshga bog'liq farqlari va lingvistik, psixologik hamda pedagogik jihatlarini tahlil qilinadi. Bolalar tabiiy ravishda yangi tilni tez o'zlashtirsa, kattalar uni ongli ravishda va grammatik qoidalar asosida o'rganadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh bolalar fonetik moslashuvchanlikka ega bo'lib, aksentsiz gaplasha oladi, kattalar esa bu jarayonda maxsus mashg'ulotlarga muhtoj bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar til o'rganishni osonlashtirayotgan bo'lsa-da, yoshga bog'liq farqlar saqlanib qolmoqda. Ushbu maqola til o'rganish jarayonini chuqurroq tushunishga va samarali metodlarni aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Til o'rganish, Inson tafakkuri, lingvistika, psixolingvistika, grammatik qoidalar, fonetik moslashuv, ikki tillilik, nevrologiya, sun'iy intellekt.

Til inson tafakkurining eng muhim vositalaridan biri bo'lib, u orqali fikr almashish, bilim o'rganish va madaniy merosni avlodlardan avlodga yetkazish mumkin. Qadimdan insonlar til o'rganish sirlarini anglashga harakat qilib kelishgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til o'rganish jarayoni yoshga bog'liq holda turlicha kechishi mumkin. Masalan, bolalar yangi tilni tabiiy ravishda va tez o'zlashtiradi, kattalar esa ma'lum bir tizimli yondashuv bilan uni egallaydi. Ushbu farqlarni o'rganish lingvistika, psixologiya va ta'lim sohasida dolzarb mavzulardan biridir. Til o'rganish jarayoni qadimdan insoniyat uchun muhim bo'lib kelgan. Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel til o'rganish tabiati haqida chuqur bahs yuritib, til inson tafakkurining tabiiy qismi yoki ijtimoiy kelishuv mahsuli ekanligi borasida turli qarashlarni ilgari surgan. Bundan tashqari, XIX asrda nemis lingvisti Vilhelm fon Humboldt ham tilni inson tafakkuri bilan bog'liq hodisa sifatida tahlil qilib, har bir til dunyoni o'ziga xos tarzda tasvirlashini ta'kidlagan. Masalan, u turli tillarda ifodalanadigan tushunchalarning o'ziga xosligini ko'rsatib, til tafakkurning shakllanishida asosiy rol o'ynashini ilgari surgan. . Bu qarashlar bugungi kunda ham psixolingvistika va madaniyatshunoslikda muhim o'rin tutadi. Masalan, bolalar yangi tilni o'rganayotganda, atrof-muhitdagi nutq namunalarini tinglab, ularni tabiiy ravishda ichki tizimga joylashtiradilar. Kattalar esa grammatika qoidalarini ongli ravishda o'rganishga moyil bo'lib, ushbu jarayon yanada murakkab kechishi mumkin. XX asrda esa Noam Chomsky til o'rganish qobiliyatining tug'ma ekanligini ilgari surib, barcha insonlarda tilni o'rganish uchun universal grammatik asos mavjudligini

taklif qildi. Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqlar turli tillarni eshitganida, ularning miyasi tabiiy ravishda fonetik va grammatik naqshlarni ajratib oladi, bu esa kattalarda kuzatilmaydi. Bugungi kunda esa sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalar til o'rganish jarayonini osonlashtirayotgan bo'lsa-da, bolalar va kattalar orasidagi farqlar saqlanib qolmoqda.

Til o'rganishning tarixi shuni ko'rsatadiki, qadimgi davrlarda tilni o'rganish tabiiy jarayon sifatida qabul qilingan. Masalan, qadimgi jamiyatlarda odamlar yangi tillarni asosan kundalik muloqot orqali o'rganishgan. Ammo zamonaviy ta'lim tizimida til o'rganish nazariyalari rivojlanib, bolalar va kattalar uchun turli xil metodologiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, bolalar uchun immersiya usuli samarali bo'lsa, kattalar uchun grammatika tarjima usuli yoki kommunikativ yondashuv afzal ko'riladi. Bundan tashqari, bugungi kunda texnologik rivojlanish tufayli onlayn platformalar, sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar va mobil ilovalar til o'rganish jarayonini yanada interfaol va qulay qilishga yordam bermoqda. Til o'rganish jarayoni yoshga bog'liq holda qanday kechadi? Bolalar va kattalar tilni turlicha o'zlashtirishadi. Nevrologiya fanining rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, yosh bolalar tilni tabiiy yo'l bilan va tez o'rganadi, kattalar esa izchil yondashuv talab qiladigan murakkab jarayondan o'tadilar. Bolalar miyasi plastiklik (neuroplasticity) jihatidan yuqori darajada bo'lib, ular yangi tilni tabiiy ravishda o'zlashtiradi. Masalan, ikki tilli muhitda o'sgan bolalar har ikkala tilda ham mustaqil gaplasha oladi, chunki ularning miyasi bu tillarni tabiiy ravishda ajratib va o'zlashtirib boradi. Kattalar esa tahliliy va mantiqiy yondashuv yordamida til o'rganadilar. Ular grammatik qoidalarini ongli ravishda tushunishga va mantiqiy bog'lanishlarni anglashga tayanadilar. Masalan, kattalar yangi o'rganayotgan tilning qoidalarini kitoblardan o'rganishga moyil bo'lsa, bolalar esa nutqni to'g'ridan-to'g'ri do'stlari, tengdoshlari va oila a'zolarini tinglash va ularning nutqlaridagi so'zlarni takrorlash orqali o'zlashtiradi. Bolalar ikkita yoki undan ortiq tilda gaplashishni ongli ravishda mashq qilmasdan ham o'rganishlari mumkin, kattalarda esa bu jarayon ko'proq izchil mashqlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, til o'rganish jarayonida talaffuz va fonetik moslashuv ham muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, bolalar yangi tovush tizimiga tez moslashadi va ona tilining urg'usidan osongina voz kecha oladi. Ikki tilli oilalarda o'sgan bolalar ikkala tilda ham aksentsiz gaplasha oladi. Lenneberg (1967) tomonidan ilgari surilgan 'Kritik davr gipotezasi' si bolalarning fonetik moslashuvchanligi yuqori ekanligini ta'kidlaydi. Kattalar esa o'z ona tilining fonetik xususiyatlarini saqlab qolish tendensiyasiga ega bo'lib, ular aksent bilan gapirishlari mumkin. Shuningdek, DeKeyser (2012) kattalar aksentdan qutulish uchun maxsus fonetik mashg'ulotlarga ehtiyoj sezishini aniqlagan. Misol uchun, kattalar yangi tilning fonetik xususiyatlarini ongli ravishda o'rganishga harakat qiladilar va aksentni kamaytirish uchun fonetik treninglardan foydalanadilar. Masalan, Munro va Derwing (1995) tadqiqotlariga ko'ra, muntazam fonetik mashg'ulotlar

kattalarning talaffuz aniqligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Bu esa bolalar va kattalar orasidagi fonetik o'zlashtirishdagi farqlarni yana-da yaqqol namoyon qiladi, chunki bolalar bunday treninglarga ehtiyoj sezmasdan, tabiiy ravishda yangi til tovush tizimiga moslashadi va o'rganadilar. Bolalar grammatik qoidalarni intuitiv ravishda tushunadilar. Masalan, 3-5 yoshli bolalar ona tilida yoki yangi tilda grammatik tuzilmalarni qo'llashni mashqlar orqali emas, balki tabiiy ravishda o'rganadilar. Kattalar esa grammatikani ongli ravishda tushunishga va qoidalar asosida qo'llashga moyil bo'ladilar. Buning ustiga, bolalar so'zlarni va iboralarni bevosita eslab qolish orqali o'rganadilar, kattalar esa mantiqiy bog'lanishlar orqali eslab qolishga harakat qiladilar. Bu esa kattalar uchun yanada chuqurroq tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi, lekin jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Til o'rganish davomida motivatsiya va o'rganish usullari ham eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bolalar uchun til o'rganish tabiatiga ko'ra ijtimoiy o'yin va atrof-muhit bilan bog'liq bo'lsa, kattalar bu jarayonga shaxsiy motivatsiya, ta'lim maqsadlari va kasbiy ehtiyojlar nuqtayi nazaridan yondashadilar.

Til o'rganish jarayoni insonning yoshiga, tafakkuriga va atrof-muhitga bog'liq holda turlicha kechadi. Bolalar yangi tilni tabiiy ravishda, intuitiv yo'l bilan o'zlashtirsa, kattalar uni ongli ravishda grammatik qoidalar va mantiqiy tahlil asosida o'rganadi. Nevrologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning miyasi tilni tez va aksentsiz o'zlashtirish qobiliyatiga ega, kattalarda esa bu jarayon ko'proq mashq va mehnat talab qiladi. Shuningdek, motivatsiya va o'rganish usullari ham muhim rol o'ynaydi. Chunki, bolalar o'yin va muloqot orqali o'rgansa, kattalar ko'proq maqsadga yo'naltirilgan metodlardan foydalanadilar. Zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt va innovatsion ta'lim platformalari til o'rganishni osonlashtirayotgan bo'lsa-da, yoshga bog'liq farqlar saqlanib qolmoqda. Shu sababli, samarali til o'rganish uchun individual yondashuv va mos metodlarni tanlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomskiy, N. (1965). *Sintaksis nazariyasining jihatlarlari*. MIT Press.
2. Lenneberg, E. H. (1967). *Tilning biologik asoslari*. Wiley.
3. Krashen, S. (1982). *Ikkinchi tilni o'zlashtirish tamoyillari va amaliyoti*. Pergamon.
4. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). *Tillar qanday o'rganiladi* (4-nashr). Oxford University Press.
5. Kuhl, P. K. (2010). *Erta til o'rganishdagi miya mexanizmlari*. Neuron, 67(5), 713–727.
6. Tomasello, M. (2003). *Tilni shakllantirish: Tilni o'zlashtirishning foydalanishga asoslangan nazariyasi*. Harvard University Press.
7. DeKeyser, R. (2012). *Ikkinchi til o'rganishda yosh ta'siri: Yaxshiroq tushunish sari qadamlar*. John Benjamins Publishing.